

UDK 615.224, 615.11

ADAPTOGEN DORI VOSITALARNING ASSORTIMENT TAHLILI

Madatova N.A., Jalilov F.S.

Alfraganus universiteti Farmatsiya va stomatologiya fakulteti Farmatsevtika va kimyo kafedrası, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi, n.madatova@afu.uz

Аннотация.

C
A
R
J
I
S
Hozirgi vaqtda tananing qo'shimcha zaxiralarini topish muammosi bir xil darajada dolzarbdir. Tananing tashqi muhit omillariga chidamliligini oshirish va uning tiklanishini tezlashtirish uchun organizmni farmakologik qo'llab-quvvatlashning mavjud vositalaridan biri adaptogen dori vositalardir. Adaptogenlar haqida ma'lumot juda keng tarqalgan. Ushbu guruhga birqancha tabiiy va sintez yo'li bilan olingan dori vositalar guruhi kiradi. Ushbu ishning maqsadi adaptogen dori vositalarining O'zbekiston bozoridagi holatini aniqlashdir. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrilari: 2020 yil №24, 2021 yil №25, 2022 yil №26, 2023 yil №27 va 2024 yil №28 ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan adaptogen dori vositalarining assortiment tahlili o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika bozorida adaptogen dori vositalarining assortiment tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda mahalliy, yuqori samarali adaptogen dori vositalarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish juda dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

J
Калит сўзлар: assortiment tahlil, adaptogen dori vositalari, dori vositalari, farmatsevtika bozori, Davlat Reestri.

Аннотация

I
S
В настоящее время не менее актуальна проблема нахождения дополнительных резервов организма. Одним из существующих средств фармакологической поддержки организма с целью повышения устойчивости организма к факторам внешней среды и ускорения его восстановления являются адаптогенные лекарственные средства. Информация об адаптогенах лекарственных средствах очень распространена. В эту группу входят несколько натуральных и полученных синтезом лекарственных средств. Целью данной работы является определение состояния рынка адаптогенных лекарственных средств в Республике Узбекистан. На основании данных государственных реестров лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники, разрешенных к применению в медицинской практике в Республике Узбекистан: №24 за 2020 год, №25 за 2021 год, №26 за 2022 год, №27 за 2023 год и №28 за 2024 год проведен ассортиментный анализ зарегистрированных в Республике Узбекистан адаптогенных лекарственных средств. Ассортиментный анализ адаптогенных препаратов на фармацевтическом рынке Республики Узбекистан показывает, что в настоящее время создание и внедрение в производство отечественных высокоэффективных адаптогенных препаратов является весьма актуальным и перспективным.

Ключевые слова: ассортиментный анализ, адаптогенные лекарственные средства, лекарственные препараты, фармацевтический рынок, Государственный Реестр.

Abstract

Currently, the problem of finding additional reserves of the body is no less urgent. Adaptogenic medicines are one of the existing means of pharmacological support of the body in order to increase the body's resistance to environmental factors and accelerate its recovery. Information about

adaptogens and medicines is very widespread. This group includes several natural and synthesized medicines. The purpose of this work is to determine the market status of adaptogenic medicines in the Republic of Uzbekistan. Based on data from the state registers of medicines, medical devices and medical equipment approved for use in medical practice in the Republic of Uzbekistan: No. 24 for 2020, No. 25 for 2021, No. 26 for 2022, No. 27 for 2023 and No. 28 for 2024, an assortment analysis of those registered in the Republic was conducted. Uzbekistan adaptogenic medicines. An assortment analysis of adaptogenic drugs in the pharmaceutical market of the Republic of Uzbekistan shows that currently the creation and introduction into production of domestic highly effective adaptogenic drugs is very relevant and promising.

Keywords: assortment analysis, adaptogenic medicines, medicinal products, pharmaceutical market, State Registry.

Kirish. Adaptogen ta'sirli dori vositalarlar asrlar davomida dunyoning barcha burchaklarida tabiblar orasida mashhur bo'lib kelgan. Adaptogenlar organizmning normal, fiziologik mexanizmlarini tiklash va charchoq, depressiya kabi kasalliklar va boshqa kasalliklarga organizmning tabiiy qarshiligini oshirish orqali uning funktsiyalarini tartibga soladi[1.2.8].

Bundan tashqari, bu birikmalar miya faoliyatini yashilaydi, jumladan, xotira va kontsentratsiyani, o'rganish va eslab qolish qobiliyatini yaxshilaydi, shuningdek, jigar hujayralariga himoya ta'sir ko'rsatadi va antioksidant vazifasini bajaradi. Adaptogenlar o'simlik ekstraktleri yoki damlamalari bo'lgani uchun ularni muntazam va uzoq vaqt davomida ishlatish mumkin. Ulardan ba'zilar depressiya kasalligini davolashda yordam beradi, boshqalari vahima hujumlari va xavotirning oldini olishda qo'llaniladi, boshqalari ongni o'tkir va mushak tizimini samarali faoliyatini ta'minlaydi[5.2.].

Organizmda tashqi omillarni zararsizlantirish jarayonida metabolism, gormonal muvozanat, fermentativ reaksiyalar, neyrotransmissiya kabi bir qator jarayonlar normallasadi. Adaptogen ta'sirga ega dorivor o'simliklar, uzoq vaqtdan beri, birinchi navbatda, ular o'sadigan mamlakatlar aholi orasida keng qo'llanilib kelingan. Ushbu mintaqalarning axolisi ushbu o'simliklardan xalq tabobatida ko'p asrlar davomida foydalangan[1.3.10].

Mahalliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirishning eng muhim va ustuvor

yo'nalishlaridan biri, dorivor o'simliklar asosida zamonaviy va keng ta'sir doirasiga ega dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etishdir. Shularning inobatga olib, Adaptogen ta'sirga ega dorivor o'simliklar xom ashyosi asosida yangi dori vositalarni yaratish dolzarb hisoblanadi[4.6.9].


Usullar. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanishga ruhsat etilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestrlari: 2020 yil №24, 2021 yil №25, 2022 yil №26, 2023 yil №27 va 2024 yil №28 ma'lumotlari asosida O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan adaptogen dori vositalarining assortiment tahlilini o'tkazish[7].

Natijalar. Adaptogen dori vositalarning assortiment tahlilini 2020-2024 yillardagi davri uchun kontent tahlilini o'rganildi. Hozirgi kunda bu usul asosiy tadqiqot usuli sifatida faol qo'llanilmoqda. Davlat Reestri tahlil qilinganda tahlil qilinayotgan yillarda ro'yhatdan o'tgan dori vositalarining farmakologik guruhi, dori shakli, ishlab chiqaruvchi va ro'yhatdan o'tkazuvchi davlati kabi ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilindi.

Tahlilni 2024 yildagi №28-sonli O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari Davlat Reestrini tahlil qilish asosida olib borildi. 2024 yilda Davlat reestridan umumiy 21 nomda adaptogen dori vositalari ro'yhatdan o'tkazilgan bo'lib, ulardan 3 nomdagisi (14.3%) mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, 2 nomdagisi (9.5%) MDH davlatlarida ishlab

chiqarilgan va 16 nomdagisi (76.2%) xorijiy farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarilgan va ro'yhatdan o'tkazilganligi aniqlandi. 2023 yildagi №27-sonli O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestrini tahlili olib borilganda, Davlat reestrndan umumiy 17 nomda adaptogen dori vositalari ro'yxatdan

o'tkazilgan bo'lib, ulardan 3 nomdagisi (17.7%) mahalliy farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarilgan, 2 nomdagisi (11.7%) MDH davlatlarida ishlab chiqarilgan va 12 nomdagisi (70.6%) chet el farmatsevtik ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarilgan va ro'yhatdan o'tkazilganligi aniqlandi.




1-diagramma. 2023-2024 yilda Davlat Reestrndan ro'yxatdan o'tgan adaptogen dori vositalarining ulushi bo'yicha tahlil natijalari.

Tahlilning keyingi qismida adaptogen dori vositalarining dori shakli bo'yicha tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomondan ishlab chiqarilgan adaptogen dori vositalarining aksariyati o'simlik xom ashyosidan tayyorlangan nastoyka va tabletkani tashkil qilgan,

chet eldan olib kelingan va ro'yhatdan o'tkazilgan adaptogen dori vositalarining assortimenti xilma-xil – sirop, granula, pasta, draje va kapsulalarni tashkil etgan.

Quyidagi diagrammada 2024 va 2023 yil Davlat Reestriga ko'ra adaptogen dori vositalarining dori shakli bo'yicha tahlili natijalari keltirilgan.



2-diagramma. 2023-2024 yilda Davlat Reestrndan ro'yxatdan o'tgan adaptogen dori vositalarining dori shakli bo'yicha tahlil natijalari.

2024 yilda eng ko'p miqdorda ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan dori shakllari sifatida qattiq


Tahlil davomida 2023 yildagi Davlat Reestrtdagi adaptogen dori vositalarining dori shakllari ham tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra adaptogen dori vositalarining aksariyatini tabletka, sirop va draje dori shakllari tashkil qilmoqda.

Tadqiqotimizning keyingi qismida adaptogen dori vositalarining ishlab

turdagi dori shakllarini e'tirof etishimiz mumkin.

chiqaruvchi davlatlari bo'yicha tahlili olib borildi. Aytib o'tish joizki, adaptogen dori vositalarining aksariyati Xitoy, Pokiston va Hindiston davlatlaridagi ishlab chiqaruvchilari tomonidan ishlab chiqarilgan. Tahlil natijalari quyidagi diagrammada keltirilgan.

Ishlab chiqaruvchi davlatlar bo'yicha 2024 yil



3-diagramma. 2024 yilda Davlat Reestrtdan ro'yxatdan o'tgan adaptogen dori vositalarining ishlab chiqaruvchi davlatlari bo'yicha tahlil natijalari.

Tahlilni keyingi qismida 2023, 2022, 2021 va 2020 yillardagi Reestr ma'lumotlari 2024 yil ma'lumotlari bilan solishtirildi. 2020-2022 yillarda mahalliy va xorijiy ishlab

chiqaruvchilari tomonidan ishlab chiqarilgan adaptogen dori vositalarining ulushi ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin, lekin 2023 yilda bu ko'rsatkichlar bir o'z pasaygan.

1-jadval. 2020-2024 yilda Davlat Reestrtdan ro'yxatdan o'tgan adaptogen dori vositalarining ulushi bo'yicha tahlil natijalari.

Ishlab chiqaruvchilar	2020 yil		2022 yil		2022 yil		2023yil		2024 yil	
	Soni	%	Soni	%	soni	%	Soni	%	Soni	%
Umumiy miqdori	15	100	16	100	20	100	17	100	21	100
MDH davlatlari ishlab chiqaruvchilari	1	6.7	1	6.2	1	5	2	11.7	2	9.5

Xorijiy ishlab chiqaruvchilari	12	80	13	81.2	13	65	12	70.6	16	76.2
Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	2	13.3	2	6.2	6	30	3	17.7	3	14.3

Muhokama. Adaptogen dori vositalarning assortiment tahlili O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri asosida olib borildi. 2020-2024 yillar davomida adaptogen dori vositalarining ro'yhatdan o'tkazilish miqdori oshib borgan. 2020-2024 yillarda ro'yhatdan o'tkazilgan adaptogen dori vositalarining asosiy qismini qattiq dori shakliga mansub - tabletka, kapsula, kukun kabi dori shakllari va o'simlik xom ashyosi tashkil qilgan. Lekin so'nggi yillarda gel, pasta kabi dori shakllarini ro'yhatdan o'tkazish va ishlab chiqarish ko'paygan, shuning barobarinda draje dori shaklidagi adaptogen dori vositalari ham ishlab chiqarila va ro'yhatdan o'tkazila boshlagan. Ro'yxatdan o'tkazilgan adaptogen dori vositalarning aksariyati xorijiy davlatlardan keltirilmoqda.

Xulosa. Adaptogen dori vositalarning assortiment tahlili O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tkazilgan dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat Reestri asosida olib borildi. 2020-2021 yillar davomida adaptogen dori vositalarining ro'yhatdan o'tkazilish miqdori oshib borgan. 2020-2024 yillarda ro'yhatdan o'tgan adaptogen dori vositalarining asosiy qismini

qattiq dori turiga mansub - tabletka, kapsula, o'simlik xom ashyosi, kukun kabi dori shakllari tashkil qilgan. Biroq so'nggi yillarda gel, pasta kabi dori shakllarini ro'yhatdan o'tkazish va ishlab chiqarish miqdori ortgan, shuning barobarinda draje dori shaklidagi adaptogen dori vositalari ham ishlab chiqarilishi va ro'yhatdan o'tkazilishi kuzatilgan.

2019-2024 yillar oraligida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan adaptogen dori vositalarining ulushi oshishiga qaramay, ularning asosiylarini halizgacha o'simlik xom ashyosi, tabletka va kapsulalar tashkil qilmoqda. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalari tomonidan adaptogen dori vositalarining dori shakllarini kengaytirish tavsiya etiladi. 2020-2024 yillar oraligida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan adaptogen dori vositalarining ulushi oshishiga qaramay, ularning asosiylarini halizgacha o'simlik xom ashyosi, tabletka va kapsulalar tashkil qilmoqda. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston farmatsevtik ishlab chiqaruvchi korxonalari tomonidan adaptogen dori vositalarining dori shakllarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ковалев Г.В., Спасов А.А., Богачев Н.А. К сравнительной адаптогенной и антистрессорной активности соединений с различной химической структурой. В кн.: Новые данные об элеутерококке и других адаптогенах. Владивосток, 2013. - С. 51-56.
2. Мадатова Н. А., Тоштемирова Ч.Т. МАРКЕТИНГОВЫЙ АНАЛИЗ ПРОТИВОДИАРЕЙНЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ СРЕДСТВ //Universum: медицина и фармакология. – 2024. – №. 4 (109). – С. 46-53.
3. Sarvarova D. M. et al. Study Of The Assortment Of Antioxidant And Hemostatic Medicines Registered In The Republic Of Uzbekistan //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2023. – S. 1028-1033.

4. Ризаева Н. М., Мадатова Н. А., Жумабоев Ж. А. Ўзбекистон республикасида рўйхатдан ўтказилган метеоризмга қарши дори воситаларининг ассортиментини ўрганиш //farmatsiya va farmakologiya фармация и фармакология pharmacy & pharmacology. – С. 93.

5. Мадатова Н. А. Создание лекарственной формы на основе биоактивных веществ растения пустырник //Значение учёных женщин в развитии медицины Узбекистана: научная конференция. – 2007. – С. 112-114.

6. Madatova N. A. Marketing analysis of the market for cardiotonic drugs //Академические исследования в современной науке. – 2025. – Т. 4. – №. 25. – С. 59-60.

7. O'zbekiston Respublikasida Tibbiyot amaliyotida qo'llanilishga ruhsat etilgan дори vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika Davlat reestri. - №24-28-sonlari (2020-2024 yillar uchun)

8. Eshonkulov O. et al. UV-RAYS AND ELECTROMAGNETIC FIELD INFLUENCE ON THE SEED GERMINATION OF ESSENTIAL OIL PLANTS UNDER NATURAL HARSH CONDITIONS //SABRAO Journal of Breeding & Genetics. – 2025. – Т. 57. – №. 4.

9. Abdugaffarova M. N. et al. QANDLI DIABET KASALLIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARNING MARKETING TAHLILI //TADQIQOTLAR. – 2025. – Т. 71. – №. 2. – С. 76-78.

10. Мадатова Н. А., Тухтаев Ф. Х., Комилов Х. М. Определение содержания биологически активных компонентов сухого экстракта надземной части Leonurus Turkestanicus //Фармацевтический журнал. – 2007. – №. 1. – С. 13-14.